BUXORO MA’RIFATPARVAR JADIDLAR ILMIY MEROSIDA KOMIL INSON MASALASINING FALSAFIY TAHLILI

Saloxov Akmal Qamariddinovich
Buxoro Davlat Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro jadidlari ilmiy merosida tasavvufiy g‘oyalar va "komil inson" idealining falsafiy talqini tahlil qilinadi. Jadidlar islohotchi, ma’rifatparvar va ilmiy fikr yurituvchi sifatida tasavvufga nisbatan muvozanatli yondashganlar. Ular tasavvufning axloqiy va ruhiy-tarbiyaviy jihatlarini qadrlagan holda, uning jamiyatdagi ijtimoiy-faol pozitsiya bilan uyg‘unlashuviga e’tibor qaratganlar. Maqolada Buxoro jadidlari ilmiy merosida inson kamoloti masalasi tasavvufiy an’analar bilan qanday uyg‘unlashgani tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Jadid, tasavvuf, komil inson, axloq, ta’lim, tarbiya

Аннотация: В данной статье анализируется философская интерпретация мистических идей и идеала “совершенного человека” в научном наследии Бухарских джадидов. Оценивая моральные и духовно-просветительские стороны суфизма, они обращали внимание на его интеграцию с социально активной позицией в обществе. В статье анализируется, как проблема человеческого совершенства сочетается с мистическими традициями в научном наследии Бухарских джадидов

Ключевые слова: Джадид, суфизм, совершенный человек, этика, образование, воспитание.

Abstract. This article analyzes the philosophical interpretation of mystical ideas and the ideal of the “perfect man” in the scientific heritage of the Bukhara Jadids. Assessing the moral and spiritual-educational aspects of Sufism, they paid attention to its integration with a socially active position in society. The article analyzes how the problem of human perfection is combined with mystical traditions in the scientific heritage of the Bukhara Jadids

Key words: Jadid, Sufism, perfect man, ethics, education, upbringing.

Kirish

Buxoro jadidlari ilmiy merosi — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Movarounnahrda yuz bergan islohotchilik harakatining muhim qismidir. Ular diniy-ma’rifiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda faoliyat yuritib, zamonaviy ta’limni rivojlantirish, jamiyatni uyg‘otish, dinni isloh qilish va milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surganlar. Jadidlarning tasavvufga munosabati va bu sohadagi g‘oyalarining tahlili bir qancha muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Musulmon Sharqida, xususan, Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ma’rifiy harakatdir. Bu harakat vakillari jamiyatni isloh qilish, millatni ruhiy-ma’naviy va madaniy jihatdan uyg‘otishni o‘z oldiga maqsad qilib

ISSN 3030-3907

qo‘ydilar. Buxoro jadidlari esa ushbu harakatning muhim vakillaridan bo‘lib, komil insonni tarbiyalash g‘oyasini o‘z markaziy masalalari qatoriga qo‘ydilar.[1] Buxoro jadidlari tasavvufni birlamchi manba sifatida emas, balki ma’naviy tarbiya va axloqiy kamolga erishish vositasi sifatida baholaganlar. Komil inson — jadidlar fikrida ma’naviy, axloqiy, ilmli va jamiyatda faol shaxs sifatida talqin etiladi. Bu g‘oya tasavvufdagi “insonul komil” tushunchasiga yaqin bo‘lsa-da, undan farqli ravishda faol fuqaro sifatida shakllantirilgan.

Komil inson masalasi islom falsafasi va tasavvuf an’analarida muhim o‘rin tutadi. Jadid mutafakkirlari bu an’anani zamonaviy ta’lim-tarbiya va ma’rifat asoslari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qildilar. Ular uchun komil inson — bu ilmli, axloqli, vatanparvar va faol fuqaro edi. Muhammad Sodiq Behbudiy o‘z asarlarida ta’lim orqali shaxsni tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, "ilmsiz insonda haqiqiy insoniylik bo‘lmaydi.[2] Behbudiy insonning kamolotga yetishi uchun, avvalo, uning qalbi va ongi ma’rifat bilan to‘ldirilishi kerak deb hisoblaydi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Movarounnahrda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar davrida jadidchilik harakati shakllandi. Bu harakatning markazlaridan biri bo‘lgan Buxoroda jadid mutafakkirlari islom ilmi va ma’rifati asosida yangi fikrlar, ijtimoiy islohotlar g‘oyasini ilgari surdilar. Ular o‘z asarlarida nafaqat diniy va ijtimoiy masalalarga, balki tasavvufiy g‘oyalarga ham murojaat qilganlar. Buxoro jadidlari tasavvufni mutlaq rad etishmagan. Ular tasavvufning ma’naviy tarbiya, axloq, nafsni poklash sohasidagi ahamiyatini e’tirof etganlar. Ammo tasavvufning ba’zi shakllari — xususan, shariatdan ajralgan, irfonni mutlaqlashtiruvchi oqimlarini tanqid qilishgan.

Buxoro jadidlari tasavvufga ikki tomonlama — tarixiy va amaliy jihatdan qaraganlar:

Ijobiy tomonlari: Tasavvufning axloqiy tarbiya, nafsni poklash, ruhiy yuksalish kabi jihatlari jadidlar tomonidan ma’qullangan. Ular insonning ichki dunyosi va axloqini tarbiyalashda tasavvufning rolini tan olganlar.

Tanqidiy tomonlari: Ayrim jadidlar tasavvufning o‘rta asrlarda shakllangan shakllarini, xususan, xurofot, tariqat peshvolarining mutlaq hokimligi, jamiyatdan chekinish, ilmdan yuz o‘girish kabi holatlarni qattiq tanqid qilganlar. Masalan, Abdurauf Fitrat va Muhammadjon Hindistoniy kabi ziyolilar tasavvufdagi ba’zi bid’at va jaholatni inkor qilganlar.

Abdulrauf Fitrat (1886–1938) — o‘zbek ma’rifatparvarlari orasida alohida o‘rin egallagan, adabiyotshunos, islohotchi va siyosiy arbob sifatida tanilgan shaxsdir. Uning ilmiy va adabiy merosida tasavvuf masalalari alohida ahamiyatga

[1] *Hasanov, A. Jadidchilik: tarixi va ilmiy merosi. Toshkent: Fan.*
[2] *Behbudiy, M.S. Padarlarga nasixat. Samarqand.*

ISSN 3030-3907

ega. Fitrat tasavvufga nafaqat badiiy nuqtai nazardan, balki tarixiy va falsafiy jihatdan ham munosabat bildirgan. Uning bu sohadagi qarashlari uning umumiy dunyoqarashi, islohotchi pozitsiyasi va diniy merosga bo‘lgan munosabati bilan uzviy bog‘liqdir. Fitrat o‘zining “Isloh yoxud usuli jadida islom” asarida diniy bilimlarni aqliy yechimlar bilan boyitish kerakligini ta’kidlaydi. Bu yerda u tasavvufni irfoniy bilim sifatida qabul qilsa-da, uning jamiyatga ta’sirini zamonaviy talablar asosida baholaydi. Buxoro jadidlari ta’limning mazmuniga alohida e’tibor qaratib, insonni jisman emas, ruhan va fikriy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashni maqsad qilganlar. Abdurauf Fitrat “Rahbari najot” asarida yozadi: “Bizning naslning saodati uchun ilm, axloq va mehnat asos bo‘lmog‘i lozim”.[3] Fitratning bu fikri jadidlar falsafasidagi komil inson modeli — jamiyatda faol, axloqli va bilimli shaxs obrazini yaqqol namoyon qiladi.

Fitratning tasavvufga munosabati uning "Bayonoti salafiya" va "Tasavvuf haqida" maqolalarida yaqqol ko‘rinadi. U tasavvufni Islom tarixidagi muhim madaniy va ruhiy jarayon sifatida tan oladi. Fitratning tasavvufga bo‘lgan qiziqishi uning islohotchi pozitsiyasidan kelib chiqqan. U tasavvuf orqali xalqning ruhiy kamolotga erishishi mumkinligini e’tirof etsa-da, bu kamolotni faol fuqaroviy pozitsiya bilan uyg‘unlashtirish kerak deb hisoblagan. Uningcha, haqiqiy tasavvuf — insonning ma’naviy yuksalishiga xizmat qilishi, jamiyatdan chetlanmasligi lozim. Bu nuqtai nazarda u Imom G‘azzoliy, Ahmad Yasaviy va Alisher Navoiyning tasavvufga oid g‘oyalariga yuqori baho beradi.[4] Fitrat tasavvuf adabiyotini ham yaxshi bilgan. U Navoiyning “Lison ut-tayr”, “Fanoi fi-lloh” g‘oyalarini tahlil qilgan hamda Mavlaviy, Attor, Rumiy, Jomiy kabi tasavvuf shoirlari asarlaridan ilhom olgan. Buni uning o‘z she’rlaridagi ruhiy teranlik va irfoniy obrazlar orqali ko‘rish mumkin[3]. U sufiy adabiyotni ma’naviy va badiiy boylik deb hisoblagan.

Fitrat ilmiy va adabiy merosi juda keng qamrovli bo‘lib, tasavvufiy qarashlar va “komil inson” masalasiga bo‘lgan munosabati alohida e’tiborga loyiq. Komil inson mavzusi tasavvuf falsafasining markaziy nuqtalaridan biri bo‘lib, Fitrat ushbu tushunchani zamonaviy ma’rifat bilan uyg‘unlashtirishga intilgan. Tasavvufda komil inson (inson-i komil) — Xudoning zohir bo‘lishini o‘zida mujassam etgan, nafsini poklagan va ruhiy yuksalish orqali haqiqatga yetgan zot sifatida qaraladi. Bu tushuncha Jomiy, Ibn Arabi, Nafasiy kabi so‘fiylar ta’limotida keng yoritilgan. Ibn Arabiyning ta’limotiga ko‘ra, komil inson — “Xalifai zamin”, ya’ni Yer yuzida Allohning vakili sifatida faoliyat yurituvchi shaxsdir. Fitrat o‘zining bir qator asarlarida tasavvufni tarixiy, ijtimoiy va axloqiy nuqtai nazardan tahlil qilgan. Uning "Tasavvuf yoki axloq" nomli maqolasida so‘fiylik va uning

[3] Fitrat, A. *Rahbari najat*. Buxoro.
[4] Rahimov, A. *Fitrat va tasavvuf: tarix va nazariyaning tutash nuqtalari*, Toshkent, 2012

ISSN 3030-3907

jamiyatdagi o‘rni, kamolotga erishish yo‘lidagi ahamiyati batafsil yoritilgan Fitratga ko‘ra, tasavvufning haqiqiy maqsadi — insonning ruhiy taraqqiyoti va axloqiy poklanishidir.[5]

Jadidlar tasavvufning axloqiy ta’limotini targ‘ibotda foydalanganlar. Ular: Komil inson g‘oyasini targ‘ib qilganlar, tasavvufning "haqiqiy islom" bilan uyg‘unlashgan shakllarini e’zozlaganlar,jamiyatni isloh qilishda insoniy fazilatlar — rostgo‘ylik, adolat, mehr-shafqat kabi qadriyatlarni muhim deb bilishgan. Fitrat “komil inson” tushunchasini ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan bog‘laydi. Uningcha, haqiqiy komil inson — axloqiy pok, ilmli, jamiyat va millat oldida mas’uliyat hissiga ega bo‘lgan shaxsdir. U bu haqda shunday yozadi: “Haqiqiy mo‘min — nafaqat ibodatda, balki faoliyatda, ilmda, mehnatda ham komil bo‘lmog‘i lozimdir”.[6] Fitratning badiiy asarlarida ham “komil inson” obrazi namoyon bo‘ladi. Masalan, “Olimlar munozarasi” va “Shayx san’ati” asarlarida aql, ilm, iroda va islomiy axloqqa asoslangan ideal inson timsolari yaratiladi. Bu obrazlar orqali u nafaqat tasavvufiy, balki zamonaviy ma’rifatchilik ruhidagi komil inson g‘oyasini ilgari suradi. Abdulrauf Fitrat tasavvufdagi “komil inson” tushunchasini tanqidiy va ilmiy yondashuv bilan qayta ko‘rib chiqdi. Uningcha, bu inson na faqat ruhiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham barkamol bo‘lishi kerak. Fitrat tasavvufni jamiyat taraqqiyoti bilan uyg‘unlashtirishni ko‘zda tutgan va komil inson g‘oyasi orqali yangi uyg‘onish yo‘lini ko‘rsatgan.

Fitrat o‘zining "Buxoroning islohga muhtoj ishlari" asarida jamiyatdagi kamchiliklarni tanqid qilar ekan, tasavvuf ahlining jamiyatdan uzilgan holda zohidlikka berilib ketganini tanqid qiladi.[7] Biroq u o‘zining she’rlarida va ba’zi falsafiy maqolalarida tasavvufiy ramzlar va tushunchalarga murojaat qilgan: ishq, haqiqat, nafsni poklash kabi mavzular shular jumlasidandir.[8]

Sadriddin Ayniy (1878–1954) – o‘zbek va tojik adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, mutafakkir, yozuvchi va adabiyotshunos olim sifatida Sharqning ma’naviy-axloqiy an’analarini ilmiy va badiiy asosda qayta ishlab, jamiyatda komil inson tarbiyasini muhim maqsad sifatida belgilagan. Uning asarlarida tasavvufiy g‘oyalar, xususan, insonning ma’naviy kamolotga intilishi va «komil inson» ideali keng o‘rin olgan.

S. Ayniyning yozuvchilik faoliyati ham tasavvufiy g‘oyalar bilan murosali munosabatda bo‘lgan. U o‘z asarlarida faqat tasavvuf ahlini emas, balki ular orqali jamiyatdagi muammolarni tasvirlagan. Masalan, “Odina” asarida u tasavvufni xalqning manfaati uchun foydalanish kerakligini bildiradi.[9] Ayniy ilk ta’limni

[5] Fitrat A. *Tasavvuf yoki axloq*. Turkiston uyg‘onishi jurnali
[6] Fitrat A. *Olimlar munozarasi*. Toshkent: Fan, 1992.
[7] Fitrat, A. *Buxoroning islohga muhtoj ishlari*. Qozon: 1911.
[8] Fitrat A. *She’rlar to‘plami*. Tahrir etgan: S. Mahmud. Toshkent: "Fan", 1994.
[9] Ayniy, Sadriddin. *Odina*. Dushanbe: Irfon, 1972

ISSN 3030-3907

Buxoroda, an’anaviy madrasa tizimida oldi. Bu muhitda u tasavvufning turli yo‘nalishlari, xususan, Naqshbandiya va Qodiriya tartiblari bilan tanish bo‘lgan. U o‘z xotiralarida bu an’analarning ijtimoiy va ma’naviy hayotdagi o‘rnini e’tirof etadi. Tasavvuf Ayniy ijodida ikki jihatda namoyon bo‘ladi: birinchisi, tarixiy-ma’rifiy jihatda – u tasavvufning tarixiy rolini yoritadi; ikkinchisi, badiiy-ma’naviy jihatda – inson ma’naviyatini chuqur tahlil etadi. Masalan, uning “Qulfi sur” va “Odina” kabi asarlarida tasavvufiy g‘oyalar inson tafakkuri va axloqiy kamoloti bilan bog‘langan holda tasvirlanadi.[10]

“Komil inson” tushunchasi tasavvufda Alloma Jaloliddin Rumiy, Imom G‘azzoliy va Bahouddin Naqshbandlar ta’limotida markaziy o‘rin tutadi. Ayniy bu an’anani davom ettirgan holda, komil insonni aql, ma’rifat va ijtimoiy mas’uliyat bilan birlikda talqin qiladi.

Ayniy fikricha, komil inson nafaqat diniy va ma’naviy jihatdan, balki ijtimoiy faollik nuqtai nazaridan ham kamol topgan shaxs bo‘lishi kerak. Uning “Odina” asaridagi bosh qahramon ana shunday shaxs sifatida namoyon bo‘ladi: u o‘z xalqining haqiqiy murabbiysiga aylanadi.[11] Sadriddin Ayniyning ilmiy ishlari, xususan, “Adabiyot ta’rixi” va “Namunai adabiyoti toҷik” kabi asarlarida u fors-toҷik adabiyotidagi tasavvufiy yo‘nalishni keng yoritadi. U Mavlono Rumiy, Hofiz, Sa’diy va Nosir Xisrav kabi arboblarning falsafiy g‘oyalarini tahlil qilgan holda, bu merosning zamonaviy jamiyat uchun ahamiyatini ochib beradi. Ayniy uchun ma’naviy kamolot – shaxsiy axloq va ijtimoiy mas’uliyat uyg‘unligidir. Uningcha, ma’rifat bilan qurollangan inson jamiyatning taraqqiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu qarashlar Ayniy asarlarida tasavvuf va ma’naviyatning zamonaviy talqini sifatida aks etgan.

Sadriddin Ayniy ilmiy va adabiy merosi orqali tasavvufiy an’analarni zamonaviy ruhda qayta talqin etishga muvaffaq bo‘lgan. Uning “komil inson” haqidagi qarashlari faqat tasavvufiy ramz emas, balki ijtimoiy-axloqiy ideal sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniyning bu boradagi ilmiy merosi nafaqat adabiyotshunoslik, balki falsafa, psixologiya va ma’naviyatshunoslik sohalari uchun ham qimmatli manba hisoblanadi.

Jadidlar tasavvufning axloqiy tarbiyaga oid g‘oyalarini — nafsni tarbiyalash, xudbinlik va riyodan qochish, ixlos va haqiqatparvarlikni — keng yoritganlar. Ayniqsa, tasavvufning Naqshbandiya tariqatiga xos "xalq ichida Xaq bilan bo‘l" degan shiori jadidlarning g‘oyaviy qarashlariga yaqin edi. Ular tasavvufning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid g‘oyalarini o‘rganib, zamonaviy islohotlar jarayonida undan unumli foydalanganlar

[10] Ayniy S. *Odina*. Dushanbe: Irfon, 1976.
[11] Rahmonov *F. Sadriddin Ayniy va ma’naviy kamolot. Dushanbe, 2003. – 65-b.*

ISSN 3030-3907

Jadidlar fikriga ko‘ra, ma’rifat — insonni jaholatdan qutqaruvchi asosiy vosita. Ular ta’limni umummilliy qadriyat sifatida ko‘rib, har bir fardni ilm olishga da’vat qilganlar. Ziyolik inson komillik sari intilishi, o‘zini va jamiyatini rivojlantirishda mas’ul ekanini tushunishi kerak deb ta’kidlangan. Buxoro jadidlarining ilmiy va ma’naviy merosi, jumladan, komil inson masalasiga oid qarashlari bugungi kunda ham dolzarbdir. Ularning ma’rifatparvarlik falsafasi, axloqiy ideallari va inson kamolotini ustuvor maqsad sifatida belgilagan faoliyati milliy rivojlanish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ular uchun komil inson bu — ma’rifatli, axloqiy tarbiyaga ega, faol va mas’uliyatli shaxsdir. Bu g‘oyalar nafaqat o‘sha davr jamiyatini isloh qilishda, balki bugungi kunda ham ma’naviy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. Hasanov, A. *Jadidchilik: tarixi va ilmiy merosi*. Toshkent: Fan.
2. Behbudiy, M.S. *Padarlarga nasixat*. Samarqand.
3. Fitrat, A. *Rahbari najat.* Buxoro.
4. Rahimov, A. *Fitrat va tasavvuf: tarix va nazariyaning tutash nuqtalari*, Toshkent, 2012.
5. Fitrat A. *Tasavvuf yoki axloq*. Turkiston uyg‘onishi jurnali
6. Fitrat A. *Olimlar munozarasi*. Toshkent: Fan, 1992.
7. Fitrat, A. *Buxoroning islohga muhtoj ishlari.* Qozon: 1911.
8. Fitrat A. *She’rlar to‘plami*. Tahrir etgan: S. Mahmud. Toshkent: "Fan", 1994.
9. Ayniy, Sadriddin. *Odina*. Dushanbe: Irfon, 1972
10. Ayniy S. *Odina.* Dushanbe: Irfon, 1976.
11. Rahmonov F. *Sadriddin Ayniy va ma’naviy kamolot*. Dushanbe, 2003. – 65-b.

ISSN 3030-3907